



2022

ПАВЛОДАР, КАЗАХСТАН

Международная конференция

**ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ
НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ
2022**

Сборник научных трудов
Павлодар, Республика Казахстан

Available at conferences.kz

В научный сборник вошли научные работы, посвященные широкому кругу современных проблем науки и образования, вопросов образовательных технологий

Главный редактор
Роза Муслимовна Жамиева

Редакционная коллегия

1. Абильдина Салтанат Куатовна

Заведующая кафедрой педагогики и методики начального обучения, доктор педагогических наук, профессор ККСОН

2. Ильясова Гульжазира Актуреевна

Заведующая кафедрой гражданского и трудового права, кандидат юридических наук, Профессор (Full Professor)

3. Досова Бибигуль Арал баевна

доцент кафедры всемирной истории и международных отношений, кандидат исторических наук

4. Д.Сабыржан Али Сабыржанович

доцент кафедры аудита, кандидат экономических наук, ассоциированный профессор.

5. Глеужанова Гульназ Кошкимбаевна

декан факультета иностранных языков, Кандидат педагогических наук Ассоциированный профессор

6. Сейтжанов Олжас Темирбекович

зам начальника КА МВД РК им. Б. Бейсенова, к.ю.н, доцент полковник полиции

7. Аренова Лейла Климентьевна

к.ю.н. доцент кафедры уголовного права, процесса и криминалистики

Издательство не несет ответственности за материалы, опубликованные в сборнике. Все материалы поданы в авторской редакции и отображают персональную позицию участника конференции

Контактная информация организационного комитета конференции:

Официальный сайт: conferences.kz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5932492>

Павлодар, Казахстан 2022

CONTENTS

AGRICULTURE

Д.А.Ахмедов, И.К.Сабилов, К.Жуманиязов ЛИНТЕРЛАШ ЖАРАЁНИДА ЧИГИТ ВА МОМИҚ АЖРАТИШ УНУМДОРЛИГИНИ ОШИРИШ БЎЙИЧА ИЗЛАНИШЛАР ЙЎНАЛИШИНИ ТАНЛАШ.....	5
--	---

PHYSICS

Бутабоев А.А., Худайкулов С.И., Абдураимов Д.Э. МЕТОДЫ СОКРАЩЕНИЯ ПОТЕРЬ НА ФИЛЬТРАЦИЮ И ИСПАРЕНИЕ КАРКИДОНСКОГО ВОДОХРАНИЛИЩА.....	7
Файзиев Шахобиддин Шавкатович FeVO ₃ НИНГ КРИСТАЛЛ ТУЗИЛИШИ.....	12

HISTORY

Shayibekov Murodjon SOVET DAVRIDA O'ZBEKISTONDA ASOS SOLINGAN SHAHARLAR TARIXI (KOGON SHAHRI MISOLIDA).....	15
--	----

MEDICINE

Икромов Иззатбек Муҳиддин ўғли ЗАМОНАВИЙ ТОВУШ КУЧАЙТИРГИЧЛАРНИНГ ИНСОН ЭШИТИШ ФАОЛИЯТИГА ТАЪСИРИ.....	18
---	----

PEDAGOGY

Fayziyeva Xolida Asadovna FIZIKA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	20
Habibullayeva Nozimaxon Plyos qizi KOLLEJ O'UVCHILARNING MUSTAQIL O'QUV-BILIM FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH.....	23

PHILOLOGY

Sulaymonova Husnida O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQOTLAR.....	25
Н.Валиева, У.Кабилов МАТННИНГ КОММУНИКАТИВЛИК ХУСУСИЯТИ.....	28

CONTENTS

Сабирова Нодира Каримбаевна СЕМАНТИК ВА ПРАГМАТИК КАТЕГОРИЯЛАРНИНГ НУТҚДАГИ ЎЗARO МУНОСАБАТИ.....	30
--	----

PHILOSOPHY

Mirshod Hasanov THE ROLE OF ABU NASR FARABI'S PHILOSOPHICAL VIEWS IN THE DEVELOPMENT OF EASTERN PERIPATETICISM.....	32
Базарбаева Гулжахан Муратбаевна «ҚИРҚ ҚИЗ» ДОСТОНИНИНГ ТАРИХИЙ - ФАЛСАФИЙ АҲАМИЯТИ.....	35

TECHNOLOGY

Меҳмонов Машхурбек Ҳусен ўғли, Эшонов Фарход Файзуллаҳўжаевич ТЕМИР ЙЎЛ ИЗИНИНГ ЭКСПЛУАТАЦИОН ИШОНЧЛИЛИГИНИ ОШИРИШ.....	39
---	----

PEDAGOGY

FIZIKA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.

Fayziyeva Xolida Asadovna

Buxoro davlat universiteti Fizika-matematika
fakulteti Fizika kafedrası o'qituvchisi.
fayzievholida7@gmail.com, tel:(90) 718-34-02.

Annotatsiya: Mazkur maqolada an'anaviy ta'limdan farqli zamonaviy ta'limni tashkil etishda ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida samarali natijalarga erishishdan iborat bo'lib, Fizika fanini o'qitish jarayonida faqat zaruriy axborotlarnigina tanlab olish va o'quvchining o'zlashtirish qobiliyatlariga mos holda ma'lumotlar hajmi miqdoriy o'lchamga keltiriladi. Buning uchun innovatsion texnologiyalarni qo'llab, umumta'lim maktablarida fizika fanidan darslarning sifatini oshirish, o'quvchilarni darsga qiziqtirish, ijodiy izlanish va mustaqil ishlash hamda o'zaro hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish masalalari keltirilgan

Kalit so'zlar: noan'anaviy dars, innovatsion texnologiya, axborot vositalari, interfaol, lider, ko'rgazma qurollari.

Yangilangan ta'limda o'quvchining yuragidagi cho'g'ni alanga oldirish, uni har tomonlama rivojlantirib, bilimdan-bilimga yetaklab olib chiqish uchun zamonaviy darslar zarurdir.

Bugungi kun fizika o'qituvchisi oldida turgan dolzarb muammolardan biri ta'limning zamonaviy texnologiyalarini loyihalash va uni o'qitish amaliyotida qo'llashdir. Fizika o'qituvchisi o'quvchilarga fizika fanidan zaruriy bilimlarni beribgina qolmay, ularda fanga nisbatan qiziqish uyg'ota olishlari kerakki, natijada bu sohada yaxshi mutaxassis, yetuk kadrlar yetishib chiqishiga erishilsin.

O'qituvchi o'tgan har bir dars boshqa darsdan farq qilishi, bugungi o'tiladigan dars kechagisiga nisbatan mukammal bo'lishi kerak.

Darsni yangi pedagogik texnologiyalar:

- axborot vositalaridan foydalanib;
- ko'rgazma qurollari yordamida;
- interfaol metodlarni qo'llash orqali;

va h.k. lardan foydalanib tashkil etsak, bu dars o'quvchi ongiga yaxshi yetib boradi va xotirasidan joy oladi. O'quvchining ilmiy dunyoqarashi kengayib, bilim darajasi ortadi.

An'anaviy ta'limdan farqli zamonaviy ta'limni tashkil etishdan maqsad ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida samarali natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek o'quvchilar faoliyati, bilimni nazorat qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash fizika fani o'qituvchisidan katta pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga yangicha yondashishni talab etadi.

Hozirgi kunda dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida o'quvchilarning ilmiy faoliyatini, ijodkorligini oshiruvchi va shu bilan bir qatorda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan. Shu tajriba asosini tashkil qiluvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilib, bu metodlarni dars jarayoniga qo'llay bilish bugungi zamon fizika o'qituvchisi zimmasiga yuklatilgan yuksak vazifadir.

Pedagogik texnologiyaning muvaffaqiyatli loyihalaniishi va yakuniy natija(samara)ning kafolatlanishi o'qituvchining didaktik masalalar mohiyatini anglab yetish darajasi va darsda ularni to'g'ri baholay olishiga bog'liqdir.

Har bir o'tiladigan darsda ta'limning aniq maqsadining belgilanishi o'qitish texnologiyasini loyihalashda muhim shartlardan biri sanaladi. Bunda fan mavzulari bo'yicha o'qitishning tashxislanuvchi maqsadi aniqlanadi.

Fizika fan sifatida o'tilgan vaqtdan boshlab fanning ma'lumotlar bazasi ko'payib katta hajmni tashkil etmoqda va u yuqori tezlikda yil sayin boyib boryapti.

Shu sababdan fizikani o'tish jarayonida faqat zaruriy axborotlarnigina tanlab olish va o'quvchining o'zlashtirish qobiliyatlariga mos holda ma'lumotlar hajmini miqdoriy o'lchamga keltirish zarur.

Fizikani o'qitishda “ZIG-ZAG” STRATEGIYASI (metodi)ni qo'llash.

Ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish zamonaviy talablardan biri bo'lib, pedagogik xodimlar va o'qituvchilardan uzluksiz ravishda o'z ustida ishlashini talab etadi.


Boshqa fanlardagi kabi fizika fanini o'qitishda ham yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish yaxshi samaralar beradi. Ushbu usullardan biri “Zig-zag” metodidir. Bu usulni qo'llashda mashg'ulot ishtirokchilarning har biri qisqa vaqt mobaynida ham munozara qatnashchisi, ham tinglovchi, ham ma'ruzachi sifatida faoliyat olib boradi.

“Zig-zag” strategiyasi o'quvchilar bilan guruh asosida ishlash, mavzuni tezkor va puxta o'zlashtirishga xizmat qiladi. Ushbu metodidan ta'lim jarayonida foydalanish o'qituvchidan o'ta faollikni, pedagogik mahorat egasi bo'lishni talab etadi. Bunda o'qituvchi guruhlarini shunday shakllantira olish kerakki, har bir guruhda faol va sust o'zlashtiruvchi o'quvchilar to'g'ri taqsimlansin. Guruhlar noto'g'ri shakllantirilganda o'quvchilar qo'yilgan muammoni yecha olmasdan vaqtni behuda sarflashlari mumkin.

O'quvchilar o'z o'rinlariga joylashib olganlaridan so'ng o'qituvchi mavzuni e'lon qiladi.

Mavzu: Ideal gaz holatining tenglamalari. Izojarayonlar.

O'qituvchi ushbu mavzuga qisqacha to'xtalib o'tadi va tushuntiradi. Sinf o'quvchilari bir necha (5-7 ta) guruhga bo'linadi. Yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ham tegishli ravishda 5-7 ta qismga ajratiladi. Har bir guruhga ajratilgan mavzuning muayyan qismi (1-matni, 2-matni,) beriladi va uni o'rganish vazifasi topshiriladi. O'quvchilar berilgan vaqt mobaynida guruhlar matn ustida ishlaydilar va vaqtni tejash maqsadida guruh a'zolari orasidan liderlar tanlanadi hamda, ular o'rganilgan matnga oid asosiy ma'lumotlarni guruhdoshlariga so'zlab beradilar. Liderlarning fikri guruh a'zolari tomonidan to'ldirilishi mumkin. Barcha guruhlar o'zlariga berilgan matnni puxta o'zlashtirganlaridan so'ng matnlar guruhlararo almashtiriladi va bu bosqichda ham yuqoridagi faoliyat takrorlanadi. Shu taxlitda mavzu mohiyatini yorituvchi yaxlit matn o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi.



Dars yakunida o'qituvchi o'z fikr-mulohazalarini bildiradi. Ilg'or va faol o'quvchilar rag'batlantiriladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llab, quyidagi natijalarga erishish mumkin: o'quvchilar o'rtasida sog'lom raqobat muhitining yuzaga kelishi; o'zaro hamkorlik; bir-birini tinglash; o'z xatosini tushunish; fanga bo'lgan qiziqishning ortishi; ijodiy izlanish va boshqa shu kabi ijobiy natijalarga erishiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. A.A. Rasulev, M.M. Haydarov “ O'qitishning interfaol metodlari ” o'quv- uslubiy qo'llanma, T.2015.
2. P. Habibullayev, A. Boydedayev, A. Bahromov, K. Suyarov, J. Usarov, M. Yo'ldosheva “Fizika” 9-sinf darslik. Toshkent-2019.
3. B.E Niyozxonova Fizika darslarida internet axborot resurslaridan foydalanishning tashkiliy – uslubiy jihatlari.// “Ta'lim muassasalarida aniq fanlarni o'qitishning dolzarb muammolari”. Resp. ilmiy-amaliy anjumani. -Buxoro: 19.05. 2017. - 229 bet.
4. X.A. Fayziyeva. Modern pedagogical technologies of teaching physics in secondary school. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 12, 2020 Part III ISSN 2056-5852.
5. Ниёзхонова Б.Э., Файзиев Ш.Ш., Махсуд М., Махмудова Қ. Умумтаълим мактабларида физикани ўқитишда инновацион технологияларнинг ўрни // Academic research in educational sciences № 12 С 1116-1120
6. Кобилов Б.Б., Ниёзхонова Б.Э. Технология оценки качества выполнения и степени усвоения лабораторного практикума по физике.//Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук № 2-2 (73) (2015). С.104-107.